

## O'ZBEK ADABIYOTIDA BADIY OBRAZ VA UNING AYRIM TURLARI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925851>

**Bahriiddinov Muslimbek Muhiddinovich**

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Tursunboyeva Dilshoda Rahmonjon qizi**

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda*

*xorijiy til ta'lim yo'nalishi 101 – guruh talabasi*

### Annotation

*Ushbu maqola badiiy obrazning turli manbalardagi ta'riflarini tahlil qiladi, badiiy obrazning asosiy xususiyatlardan biriga aylangan hayotiy shaklning tasvirini hamda asarlardagi takrorlanmas obrazlarning yaratilishini atroflicha ochib beradi.*

### Kalit so'zlar

*xarakter, badiiy obraz, obrazning keng va tor ma'nolari, hayotiy shakl, badiiy obrazning umumlashmaligi, obrazning jonli, aniqliligi, takrorlanmas qahramonlar.*

Badiiy kitob o'qiyotgan har bir insonda asardagi qahramonlar haqida turliha tasavvurlar paydo bo'ladi. Badiiy obraz insonlarning fikrlashiga ta'sir qilib, o'quvchilarda o'sha davrdagi insonlarning hayot tarzi, dunyoqarashi shuningdek, ijtimoiy holati haqida umumiyl tushuncha va tasavvur hosil qiladi. Badiiy obraz dunyoni bilish vositasi desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Adabiyotshunos D.Quronov badiiy obrazga ta'rif berar ekan "borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'ringan va ideal asosda ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan aksidir" degan fikirlarni ilgari sursa, H.Umurov qarashlarida adabiyotga hayotdagi barcha unsurlar kirishini hisobga olib holda, ularning san'atkor ongi va qalbida jilolanishi eng muhimi insonlashib bir butunlik kasb etishini obraz deb yuritish zarur qabilidagi fikrlar berilgan.[3;42]

Badiiy asar borki, xarakter, timsol, personaj kabi atamalar mavjud. Kichkinagina hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she'rda xarakter kayfiyati, munosabati tasvirlanadi. Aristotel "Poetika" asarida xarakter "qandaydir maqsadga amal qilish, ...o'ziga xos, ...haqqoniy, ...izchil bo'lishi kerak"ligini aytgan, ayniqsa, "voqealarda xarakterlardagi kabi mantiqqa zid hech narsa bo'lmasligi lozimligini ta'kidlagan. Xarakter - badiiy adabiyotning umumbashariy muammosi. Bu atamani turli mamlakat yozuvchilari,

adabiyotshunoslari o'z milliy adabiyotlari, san'atlari misolida yoritib bergenlar. Qahramonlar obrazini yaratishda hodisalar o'zaro ichki bog'lanishga egaligi, vaziyat, xarakterlar uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, badiiy asar qahramonlari muallifga ergashishi emas, balki muallif o'z qahramonlariga ergashishi asar qismatini belgilovchi omil hisoblanadi, o'z asarini yozib tugatdim deb yengil tortgach, ijod lazzatining sururidan chuqur tin olib, burchini o'taganlikdan qoniqish hosil qilgan muallifga o'z qaydlari, tuzatishlari va takliflarini taqdim etadi va uni yangi dovondan oshishga chorlaydi. [1;33]

"Obraz" termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha taijimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi Shunga ko'ra, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik - badiiy borlikdir. Fikrimizni oydinlashtirish uchun musavvir ijodiga murojaat qilaylik. Musavvir yaratgan peyzaj – tabiat manzarasi tasviri bilan "natura" – asarga asos bo'lgan real manzara orasida juda katta tashqi o'xshashlikni topishimiz va, hatto, "xuddi o'zi-ya" deya hayratlanishimiz mumkin. Ehtimol, kim uchundir bu nav hayrat musavvir ijodiga berilgan yuksak baho bo'lib ko'rinar, aslida esa bu xil baho san'atni tushunmasligimizdan dalolat, xolos. Ya'ni, biz musavvir ayricha bo`rttirgan bo`yoqlarni, uning kechinmalariga "hamohang" ranglar jilosini, bizning nazarimizda ahamiyatsiz ko`ringani uchun e'tibor bermaganimiz, biroq muallif nazarida muhim bo`lgani uchun bo`rttiribroq berilgan chizgini, naturada bo'lsa-da asarda aksini topmagan yoki bo`lmasa – da asarda aks ettirilgan jajji detalni, ... ilg`ay olmagan bo'lib chiqamiz. Boshqacha aytsak, obrazdagi obyektiv ibtidoni ko`rganimiz holda, undagi subyektiv ibtidoni – asarga singdirib yuborilgan muallifni, muallif qalbini ko`ra olmadik. Modomiki badiiy obrazda faqat obyektiv ibtidonigina ko`rar ekanmiz, demak, asarni ko`rmagan – badiiyat hodisasidan chetda qolgan bo'lib chiqamiz. Zero, badiiyat ijod va retsepsiya (o'qish, tomosha qilish, tinglash) jarayonlaridagina mavjuddir. Bundan ko`rinadiki, haqiqatda badiiy obrazning materiali real voqelikgina emas, ijodkor shaxsiyati hamdir. Shu vajdan

ham bir xil mavzuni qalamga olgan ikki yozuvchi, bitta narsaning suratini chizgan ikki rassom tomonidan yaratilgan obrazlar bir xil bo`lmaydi, bo`lolmaydi.[1]

Yana bir boshqa manbalarda obraz haqida boshqacha tasavvurlar ham bor. Masalan Obraz atamasi raz (chiziq) sozidan olingan bolib, raz sozidan razit (chizmoq, yonmoq, oymoq) va undan obrazit (chizib, oyib, yonib shakl yasamoq) sozi yasalgan. Obrazitdan obraz (umuman olingan tasvir) vujudga kelgan. Aslida obraz slavyan tillariga xos soz bolib, u voqeа hodisalarning xayolda namoyon bo`ladigan manzarasini bildiradi.

Obraz mazmun va Shaklning, mavzu va g`oyaning birligini o`zidamujassamlaydi. Obraz deb muayyan g`oyaviy - estetik vazifa nuqtai nazaridanumumlashtirib, aniqlashtirib tasvirlangan insonlar, voqeа-hodisalar, tabiatmanzaralariga aytildi. Obraz adabiyot va san'atda badiiy fikrlashning asosiyvositasi, g`oyaviy mazmunni ifoda etishning muhim Shaklidir. Shu sababli M.Gorkiy obrazning o`ziga xos xususiyatlari haqida gapirib, "Obraz – fikrni o'stirishning tejamli usuli", - degan edi.[2]

Adabiyotshunos olimlar badiiy obrazni keng va tor ma'nolarga bo'lishadi. Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikri va his tuygulari singdirilgan hayot tasvirini anglatsa, tor ma'nodagi obraz esa inson siymosini ifodalaydi. Bilamizki, o'qigan badiiy kitoblardagi deyarlj barcha qahranonlarimiz tor ma'nodagi ya'ni inson obrazidadir. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, badiiy adabiyotning asosiy tushunchalari inson obrazi orqali yuzaga chiqadi. Inson obrazi badiiy adabiyotning asosiy vositasidir. Shuningdek,bosh qahramonlari hayvonlar bo'lgan masallarda ham asosiy góya insonlarning xatti harakatlarini, ichki kechinmalarini ochib beradi.

Bunga misol qilib Ezop masallaridan birini olishimiz mumkin. Masalan, "Yovvoyi echkilar bilan cho'pon" masalidan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, yangi do'stlarni eskilardan afzal tutuvchilar bilan do'stlashishga shoshilmasligimizni, zero yana yangi do'stlar ottirganida biz ham eski do'stlar qatorida bo'lib qolishimizni shunday ajoyib masal orqali yetkazib bergen. Ko'rib turibsizki, bu insonlarga xos xislatlardan biridir.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining buyuk yutuqlari tufayli voqelikdagi umumiyy muhim vatipik tomonlarni, hodisalar mohiyatini "hayotiy shakl"- da ochib berish chinakam badiiy obrazlaming asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Adabiyotning nodir namunalarini o'rganish badiiy obrazning tarixan shakllangan ikki eng muhim xususiyatini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.Badiiy obrazga xos birinchi xususiyat, yuqorida aytilganidek, uning jonli, aniqligi, o'ziga xos belgilarga boyligi bo'lib, bu xususiyat san'at va adabiyotning kishilarga hissiy ta'siri qudratini

belgilaydi. Masalan, xalqimizning o'tmishi, xususan, XIX asrdagi hayoti, tarixi oddiy holda mantiqiy ravishda, tushunchalar yordamida so'zlab berilishi mumkin, lekin u kishiga yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida chizilgan mazkur davrmanzaralari, qahramonlaming taqdirlari, hayajonlari darajasida jonli tasawur bermaydi. Obrazning ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'zida ayni holda aniq, takrorlanmas, shu bilan birga, umumiyligini, tipik belgilarni mujassamlashtiradi. Badiiy obrazning sanab o'tilgan xususiyatlari uning kitobxonga, tomoshabinga, tinglovchiga ko'rsatadigan ta'sir qudratini oshiradi va san'atkor his qilgan, o'ylab yurgan, to'qib chiqargan narsalarni yaqqol jonlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Aytganlarimiz badiiy obrazdagi umumiylilik va xususiylikning birligi haqida dastlabki xulosa chiqarish uchun asos bo'la oladi. Agar shoir o'z oldiga qandaydir bir joyni tasvirlash maqsadini qo'yib, uning ko'plab belgilarini, aniqrog'i, muhim tomonlarini sanab chiqsa, u holda poeziya emas, oddiy jug'rofiya vujudga keladi. Aksincha, shoir o'sha joyning jug'rofik xususiyatlarini qayd qilish bilan shug'ullanmay, uning haqiqiy qiyofasini, jonli manzarasini yorqinlashtiruvchi belgilarini ko'rsatib bersa, u holda chinakam poetik obrazli tasvir yuzaga keladi.

L.N.Tolstoyning fikricha, adabiyotda ma'lum bir tip yaratish uchun shu toifadagi juda ko'p kishilarga xos xususiyatlarni tanlab olib, badiiy bir butunlikka jamlash kerak. Yozuvchi bir do'kondor, amaldor va ishchi obrazini yaratish uchun juda ko'p do'kondor, amaldor va ishchi hayotini o'rganishi ularning sotsial sinfiy qiyofasini belgilovchi xarakterli xususiyatlarni, odatlarni va bsohqalarni bir obrazda bera olishi kerak. Demak, adabiy asar qahramoni hayotdagi kishilarga juda o'shab ketsa-da, ularning aynan o'zi bo'la olmaydi. Obraz umumlashma natijasi bo'ladi. Asarda tasvirlangan birgin obraz zaminida yuzlab minglab kishilarga xos xislat va belgilar umulashtirib, jamlab beradi. Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi Mirzakarimboy obrazi - XX asr boshlarida tug'ilib kelayotgan o'zbek milliy burjuazasining umumlashma obrazi - tipi ekanligini payqash qiyin emas. Mana shunga ko'ra, badiiy asarni o'qiganda sezib turamizki, asarda tasvirlangan kishilar hayotdagi jonli odamlarning aynan, o'zi emas, aksincha, jonli odamlarning eng muhim, tipik xislatlarini o'zida jamlahan badiiy bir butunlikka yiqqan, sintezlangan shaklidir. N.V.Gogolning "Revizor" komediyasidagi Xlestakovning muhim xislati - aldoqchilik, firibgarlik, Sadriddin Ayniyuning "Sudxo'rning o'limi" povestidagi Qori Ishkamba obrazining bosh xususiyati - xasislik, sudxo'rlik, ochko'zlik, G'afur G'ulomning "Tirilgan murda" qissasidagi Mamajonning yetakchi xislati - yalqovlik, H.H Niyoziyuning "Maysaraning ishi" komediyasidagi Maysaraning xislati - tadbirkorlik, B.Rahmonovning "Yurak sirlari"

komediyaсидаги Surmaxonning asosiy xususiyati - tannozlik, satanglik, meshchanlik va hozako. Biz hayotda uchraydigan aldoqchilarni - xlestakovlar, o'ta xasis va sudxo'r kishilarni - qori ishkamballar, yalqovlarni - mulla mamajonlar, tadbirdor va uddaburon ayollarni - maysaralar, meshchan, tannoz va satanglarni - surmaxonlardeb ataymiz. Chunki, yetuk realistik badiiy asarlardagi obrazlarda hayotdagi jonli odamlarning tipik xususiyatlari umumlashtirib ko'rsatiladi. A.M.Gorkiy quyidagi fikri alohida e'tiborga loyiq: "Badiiy adabiyot ayrim faktlarga bo'ysunmaydi, chunki u undan yuqoridir. Uning faktlari haqiqatdan ajralmaydi...". Demak, umumlashtirish - badiiy obrazning muhim xusisyati ekan. Shusiz obraz yaratish mumkin emas. [ 3; 42- 43]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy obraz har qanday yozuvchining ma'lum asar yaratishdagi asosiy qurolidir. Badiiy obrazning qay shaklda, necha ko'rinishda, qaysi turda foydalanishi yozuvchining tanlagan mazmun va shkliga bog'liq bo'lsada u asarni umuman olganda badiiy obrazsiz tasavvur qilish imkonsizdir. Negaki, adabiyotning har qanday shaklida ham badiiy obrazning o'rni beqiyosdir. Inson obrazining qanday xarakterliligi, portreti va shu kabi tushunchalar ijodkorning dunyoqarashiga hamda kreativligiga tayangan holda yaratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Tashmuxamedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" 1- qism, "Shafoat nur fayz", Toshkent 2020. 33-bet
2. E. Xudoyberdiyev "Adabiyotshunoslikka kirish","Iqtisod - Moliya", Toshkent 2007. 33-34 betlar
3. Bahriiddinov M.M. Some problems of lexical investigation of the novel Ulysses by James Joyce. Namangan davlat universiteti ahborotnomasi ISSN:2181-0427 2020 – yil, 1 – son, 208 – 212 b.
4. T. Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari", "O'zbekiston", Toshkent 2002. 42-43-betlar
5. R.Yaqubjonova. E. Xeminguey asarlarida qo'llanilgan xorijiy so'zlarning lingvostistik xususiyatlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari. Eurasian Journal of Academic Research.87-92. 2023
6. G.Zaynobiddinova. The role of E-Media in our lives: shaping The modern world. Journal of language and linguistics 184-192 2023
7. G.Zaynobiddinova. Literature as a Branch of Linguistics. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). 8-11. 2024

**FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:**

1. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/dilmurod-quronov-adabiyotshunoslikka-kirish>
2. <http://library.navoiy-uni.uz/files/adabiyotshunoslik%20asoslar.pdf>